



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 20-avgust, № 169 (9064)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI POKISTON DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Pokiston Islom Respublikasi Shtablar boshliqlari birlashgan qo'mitasi raisi,
general Sahir Shamshod Mirzo boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Yuqori martabali
mehmon davlatimiz
rahbariga Pokiston Bosh

vaziri Shahboz Sharifning
salomi va eng egzu tilklarini
yetkazdi.

Pokiston Bosh vazirining
joriy yil fevral oyidagi
O'zbekistonga tashrifi

davomida erishilgan
kelishuvlarni amalga
oshirish nuqtayi nazaridan

O'zbekiston – Pokiston ko'p
qirrali hamkorlik va strategik
shiriklik munosabatlarini
yanada rivojlantirish
masalalari muhokama
qilindi.

Turli darajalarda o'zaro
muloqot va almashinuvlar
faollashgani mamnuniyat
bilan qayd etildi. Joriy yil
boshidan tovar ayirboshlash
hajmi 23 foizga, yuk tashish
50 foizga oshdi. Karachi va
Lahor shaharlarida savdo
uyllari ochildi. To'g'ridan-
to'g'ri aviaqatnovlar
ko'paydi.

Harbiy va harbiy-texnik
sohalarda, xavfsizlikka
zamonaviy tahdid va
xatarlarga qarshi kurashish
borasidagi amaliy hamkorlik
masalalari ko'rib chiqildi.

Transaf'yon temir yo'lini
qurish loyihasi bo'yicha
imzolangan uch tomonlama
bitimni tez fursatda amalga
oshirishga alohida e'tibor
qaratildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Matbuot xizmati
surati.

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON — ENG YAQIN, ISHONCHLI HAMKORLAR

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning
Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan uchrashuvi
bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish
nuqtayi nazaridan ikkala davlat strategik sherikligi va
ittifoqchiligining dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv

Qozog'iston Prezidenti O'zbekiston
Oliy Majlisi Senati Raisini samimiy
qutlar ekan, uning Ostonaga tashrifi
mamlakatlar o'rtasidagi strategik
munosabatlarning o'ziga xos
xususiyatining yaqqol tasdig'i ekanini
takidlagi.

Qosim-Jomart Toqayev Tanzila
Norboyevaning ikki xalq o'rtasidagi
do'stlik va yaxshi qo'shnichilik
rishtalarini mustahkamlashga qo'shgan
shaxsiy hissasini yuqori baholadi.

“Sizning tashrifingiz mamlakatlarimiz
o'rtasidagi do'stona munosabatlarni
mustahkamlash nuqtayi nazaridan
juda muhim. Biz qardosh O'zbekiston
bilan hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor
ahamiyat qaratamiz. Bu Markaziy
Osiyo mintaqasida barqarorlik va
xavfsizlikni ta'minlashda juda muhim
omil, deb hisoblaymiz. Mamlakatlarimiz
o'rtasidagi munosabatlar qanchalik
yaxshi, yaqin va samarali bo'lsa,
umuman mintaqadagi vaziyat
shunchalik tinch bo'ladi. Sizning
tashrifingizga kelsak, buni
munosabatlarimizning o'ta muhim
elementi bo'lgan parlamentlararo
aloqalarni mustahkamlash nuqtayi

nazaridan haqiqatdan ham muhim, deb
bilaman”.

O'z navbatida, Tanzila Norboyeva
ham Qosim-Jomart Toqayevga
samimiy qabul uchun minnatdorlik
bildirib, Prezident Shavkat
Mirziyoyevning salomini yetkazdi.

— Davlatimiz rahbari sizga
o'zining iliq salomini yo'lladi hamda
olib borayotgan ishlaringizda ulkan
muvaffaqiyatlar tiladi. Hamkorlikda
erishilgan kelishuvlar ijrosini samarali
ta'minlashga biz, parlament a'zolari
doim o'z hissamizni qo'shamiz. Siz
aytganingizdek, O'zbekiston uchun
Qozog'iston, Qozog'iston uchun
O'zbekiston eng yaqin, ishonchli
hamkordir, — dedi O'zbekiston Oliy
Majlisi Senati Raisi.

Uchrashuvda, shuningdek,
parlamentlararo diplomatiyani, savdo-
iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni
yanada rivojlantirish masalalari ham
muhokama qilindi. Madaniy-gumanitar
aloqalarni mustahkamlashga alohida
e'tibor qaratildi.

O'z navbatida, Qosim-Jomart
Toqayev O'zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevga samimiy
tilaklarini bildirdi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi
bo'lib o'tdi. Unda dastlab davlatimiz rahbari tashabbusi
bilan Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya
shaharchasi, Yuqori Chirchiq tumanidagi Milliy futbol
markazi hamda yangi turizm infratuzilmasi obyektlari
ahamiyatiga to'xtalib o'tildi.

Olimpiya shaharchasining
qurilishiga 2022-yilda tamal toshi
qo'yilgan vaqtida davlatimiz rahbari
bu shaharcha xalqimizning yuksak
bunyodkorlik salohiyati va o'zbek
sportining olamshumul yutuqlari
ramziga aylanishi, me'moriy jihatdan
mukammal va ilg'or innovatsion
yechimlarni mujassam qilgan
zamonaviy majmua bo'lishini
ta'kidlagani aytili.

Shaharchani ko'zdan kechirish
davomida mamlakatimiz rahbari
bir guruh sportchilar bilan ham
uchrashib, muloqot qildi. Sport o'ziga
xos siyosat va diplomatiya uslubiga

aylanib borayotgan bugungi davrda
mana shunday ulkan Olimpiya
shaharchasining bunyod etilgani
O'zbekistonning xalqaro darajadagi
obro'sining yanada o'rtoishiga xizmat
qilishi urg'ulandi.

Sport yo'nalishidagi ishlarni yanada
jadallashtirish, sportchilarimizning
yutuqlari bardavomligini ta'minlashda
parlament vakillari sohadagi qonun
hujjatlarini bugungi kun talabidan
kelib chiqqan holda takomillashtirishi,
mas'ullarning axborotini eshitish,
parlament va deputatlik nazoratini
o'rnatishi lozimligi



20-avgust – Tadbirkorlar kuni

VATANIMIZ TARAQQIYOTIGA MUNOSIB HISSA QO'SHISH — TADBIRKORLIK BURCHIMIZ

“Ishbilarmon, mardlik va shijoat sahibi,
azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir
kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd
kishilardan yaxshidir”, degan edi
sohibqiron bobomiz Amir Temur. Zero,
tadbirkorlar barcha zamonda ham ilg'or
va faol kishilar sifatida jamiyatni oldinga
yetaklovchi asosiy kuchga aylangan.
Bugungi kunga kelib makroiqtisodiy
barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy sohalarni
rivojlantirish, aholining turmush darajasini
yuksaltirishda ishilarmonlarning roli har
qachongidan ortdi, desak, mubolag'a
bo'lmaydi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi
bilan yurtimizda qulay biznes muhitini
yaratish, tadbirkorlik harakatini rivojlantirish,
ishbilarmonlarni har tomonlama qo'llab-
quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan tizimli

chora-tadbirlar tufayli ular iqtisodiyotning
tayanchiga aylandi.

Prezidentimiz tomonidan kuni kecha
imzolangan “Tadbirkorlar kuni munosabati
bilan soha vakillaridan bir guruhini
mukofotlash to'g'risida”gi Farmonga ko'ra
yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport
salohiyatini yuksaltirishda o'zining salmoqli
natijalari bilan munosib hissa qo'shib
kelayotgan tadbirkorlardan bir guruhini yuksak
davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Shubhasiz,
bunday yuksak e'tirof tashabbuskor
ishbilarmonlar uchun Tadbirkorlar kuni hamda
istiqlolimizning qutlug' 34 yillik bayramiga
munosib tuhfa bo'ldi.

Xizmatlari alohida e'tirof etilgan
tadbirkorlardan ayrimlarining dil izhorlari bilan
4-sahifada tanishasiz.

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN YANGI REJA VA TAKLIFLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash
tizimini transformatsiya qilish va tibbiy yordam
sifatini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti
bilan tanishdi.

Bu borada davlatimiz rahbari shu yil
7-mayda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida
topshiriq bergan edi. Shundan kelib chiqib
soha mutaxassislari, aholi va xususiy sektor
vakillari ishtirokida qator takliflar tayyorlandi.

Bugun kasalliklarni davolashda katta
yuklama respublika muassasalariga
tushmoqda. Shu bois viloyat va tuman
miqyosida xizmatlarni kengaytirib, tibbiyotni
aholiga yaqinlashtirish choralari ko'rilmogda.

Shu maqsadda 1 ming 500 ta klinik
protokol xalqaro talablarga moslashtiriladi va
standart jarrohlik amaliyotlari ishlab chiqiladi.
Eng keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha
bemorlar marshrutlari ishlab chiqiladi va
raqamlashtiriladi.

So'nggi yillarda insult va infarktg'a olib
keladigan gipertoniya, yurak ishemik kasalligi
va qandli diabetning ko'payishi kuzatilmoqda.
Bunday holatlarning 85 foizi nogironlikka olib
kelmoqda.

Shu bois birlamchi bo'g'inda sun'iy
intellektli keng qo'llagan holda ushbu
kasalliklarning oldini olish va davolash
bo'yicha yangicha protokol va yondashuvlarni
joriy qilish taklifi bildirildi. Jumladan, EKG-
telemetriya, telemeditsina, trombolizis
terapiya, stentlash va tromboekstraksiya
yo'lga qo'yiladi. Insult belgilarini erta aniqlash
algoritmini ommalashtirish va aholiga
o'rgatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Nevrologik kasalliklar va insultni samarali
davolash maqsadida Milliy nevrologiya va
neyroreabilitatsiya tibbiyot markazi tashkil
etiladi. Markaz uchun Toshkent shahrida 250
o'rinni zamonaviy bino quriladi, unda yiliga 3
mingdan ortiq jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish
imkoniyati yaratiladi.

Markaz hamda Samarqand va Buxorodagi
tibbiyot oliy o'quv yurtlari klinikalari zamonaviy
us kunalar bilan jihozlanadi. Yaponiyalik
hamkorlar ko'magida xalqaro standartlar
bo'yicha erta reabilitatsiya xizmati joriy etiladi.
150 nafar mutaxassis xorijda malaka oshiradi.
Loyiha uchun 150 million AQSH dollari
yo'naltiriladi. Ushbu chora-tadbirlar nogironlik
va mehnatga layoqatsizlikni kamaytirish
imkonini beradi.

Shuningdek, amaldagi sog'liqni saqlash
tizimini xaritalash va raqamlashtirish, shu
asosda tibbiyot muassasalarini yagona
yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha
master-reja ishlab chiqish taklifi bildirildi. Bu
ishlar doirasida yangi qurilish standartlari,
poliklinika va kasalxonalarning namunaviy
loyihalari shakllantiriladi, 210 ta sanitariya
normasi qayta ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda aholining laboratoriya
tahlillariga ishonchi birmuncha past.
Laboratoriya xizmatining sustligi profilaktika
va davolashni qiyinlashtirmogda. Tuman
darajasidagi 2800 ta poliklinikaga 1500 ta
laboratoriya xizmat ko'rsatayapti, uskunalarining
aksariyati eskirgan, ayrim tahlillar qo'lda
bajariladi.

Shu bois 2030-yil yakuniga qadar 198 ta

markazlashgan laboratoriya tashkil etish, ichki va
tashqi sifat nazoratini yo'lga qo'yish, jarayonlarni
to'liq raqamlashtirish ko'zda tutilgan. Shu bilan
birga, bepul tahlillar soni oshiriladi.

Professional va oliy tibbiy ta'limni
rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Hamshiralar akademiyasini Toshkent davlat
tibbiyot universiteti huzuridagi Professional
tibbiyot akademiyasiga aylantirish taklifi
bildirildi. Xalqaro hamkorlar bilan birga yangi
dasturlar joriy qilinadi, hamshiralarni “NCLEX”
imtihoni asosida xalqaro sertifikatlash
yo'lga qo'yiladi. Oliy ma'lumotli hamshiralar
tayyorlash yo'nalishiga qabul kvotasi
bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Bundan tashqari, barcha o'quv dasturlari
xalqaro tashkilotlar talablari asosida
akkreditatsiyadan o'tkaziladi, oilaviy tibbiyot
bo'yicha integratsiyalashgan ta'lim dasturi
va bir yillik internatura joriy etiladi. “Bemor
yonida” o'qitish ulushini oshirish, bilimlarni
baholashning ikki bosqichli tizimini hamda
tibbiyot xodimlarini ro'yxatga olish tizimini
bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilgan.

Alohida yo'nalish jamoat salomatligi bilan
bog'liq. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi qo'mitasi faoliyatini
yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasiga,
onalar va bolalar o'limini kamaytirishga,
jarohatlanishning oldini olishga yo'naltirish
taklif etilmogda. Buning uchun yuqumli
bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi bo'yicha
milliy dastur ishlab chiqiladi.

Qon xizmatini takomillashtirish masalasi
ham dolzarb. Bu borada 2026 – 2030-yillarga
mo'ljallangan dastur qabul qilinib, tibbiyot
muassasalarining qon bilan ta'minlanganligi
100 foizga yetkaziladi. Qon preparatlari ishlab
chiqarish yo'lga qo'yiladi. Qon xavfsizligini
ta'minlashning zamonaviy usullari, jumladan,
viruslarni inaktivatsiya qilish va nurlantirish
joriy etiladi. Bu o'lim holatlarini kamaytirish va
qonga ehtiyojini ta'minlash imkonini beradi.

Mamlakatimiz farmatsevtika bozori bugungi
kunda 2 milliard dollardan oshgan. Islohotlar
aholini sifatli, xavfsiz va samarali dori vositalari
bilan ta'minlashga qaratilgan.

Bu yo'nalishda, Jahon sog'liqni saqlash
tashkiloti mezonlarini inobatga olgan holda
dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda tan olish
tartibi joriy etiladi. Jeneriklarning bioekvivalent
sinovlari o'tkaziladi, tibbiy buyumlarni xavfsizlik
sinflari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazishning
tabaqalashtirilgan tizimi qo'llaniladi. Bu borada
faoliyatni boshlash uchun xabardor qilish tartibi
joriy etiladi.

Shartnoma asosida ishlab chiqarish
va texnologiyalar transferi rivojlantiriladi,
farmnazoratning zamonaviy mexanizmlari
tatbiq qilinadi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni
ma'qullab, tegishli hujjatlarni imzoladi.
Belgilangan vazifalari ijrosini tizimli va sifatli
ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'ZA.

QADRIYATLARI O'XSHASH, MADANIY VA MA'NAVIY ILDIZLARI BIR XALQMIZ

O'zbekiston parlamenti delegatsiyasi Ostona shahrida bo'lib
o'tgan “Umumiy tarixiy-madaniy meros – hamkorlikning yangi uqlari”
mavzuidagi O'zbekiston va Qozog'iston ilmiy-ijodiy ziyollilarining birinchi
forumida ishtirok etdi.

Forum

Anjumanda Oliy Majlis Senati
Raisi Tanzila Norboyeva O'zbekiston
va Qozog'istonni nafaqat umumiy
manfaatlar, balki chuqur tarixiy,
madaniy va ma'naviy ildizlar bog'lab
turganini ta'kidlagi.

Ikkala mamlakat rahbarlari –
Prezident Shavkat Mirziyoyev va
Prezident Qosim-Jomart Toqayevning
siyosiy irodasi hamda sa'y-harakatlari
tufayli davlatlar o'rtasidagi do'stona
munosabatlar, jumladan, gumanitar
va madaniy aloqalar tobora
mustahkamlanayotganini
qayd etdi.



Fakt va raqamlar

CHET EL INVESTITSIYALARI ISHTIROKIDAGI KORXONALAR SONI 16 609 TAGA YETDI

Shu yilning 1-avgust holatiga ko'ra O'zbekistonda
chet el investitsiyalari ishtirokida jami **16 609 ta**
korxona faoliyat yuritayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich
o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **16,4 foiz**
oshgan.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra ulardan
4 094 tasi qo'shma va **12 515 tasi** xorijiy korx-
onalardir. Chet el sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan
korxonalarning katta qismi Xitoy (4 250 ta), Rossiya (3
093 ta), Turkiya (1 982 ta), Qozog'iston (1 149 ta) va
Janubiy Koreya (671 ta) davlatlarining ulushiga to'g'ri
keladi.

QADRIYATLARI O'XSHASH, MADANIY VA MA'NAVIY ILDIZLARI BIR XALQMIZ

Forumda buyuk mutafakkirlar, shoir hamda olimlar, faylasuflar merosini asrab-avaylash va targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Ostona shahrida Alisher Navoiyga, Toshkentda esa Abay Qo'nonboyevga haykal o'rnatilgani, O'zbekistonda Abay tavalludining 180-yilligiga bag'ishlangan xotira tadbirlari o'tkazilgani ikki davlat hamkorligining yorqin namunasi sifatida tilga olindi.

Shuningdek, ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalasi ham muhokama etildi. Bugungi kunga qadar O'zbekiston va Qozog'iston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 280 dan ortiq shartnoma hamda memorandumlar imzolangan, qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. Ta'lim kunlari va universitet yarmakalari o'tkazilib, O'zbekistonda qozoq tilida mutaxassislar tayyorlashga e'tibor berilayotgani, 400 dan ortiq maktablarda qozoq tili o'qitilayotgani ta'kidlandi.

O'zbekiston parlamenti madaniy va

ilmiy hamkorlikka qaratilgan qo'shma tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashi, bu yo'nalishda zarur qonunchilik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilishi aytiladi.

Ishirokchilar yangi sharoitlarda madaniy turizm va kreativ industriyani rivojlantirish, yoshlarni faol jalb etgan holda festivallar, ko'rgazmalar, kinoforumlar hamda tadbirlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega ekaniga urg'u berishib, ushbu forum O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida gumanitar aloqalarni mustahkamlash, yangi loyihalarni muhokama qilish hamda ikki mamlakat ziyolilari o'rtasida fikr almashish uchun muhim minbarga aylanganini ta'kidlashdi.

Shu bilan birga, forum doirasida ikki xalqning buyuk shoirlari, rassom va olimlarining ilmiy hamda ijodiy merosi namunalaridan tashkil topgan ko'rgazma tashkil etildi. Ko'rgazma doirasida o'zbek ijodkorlari qalamiga mansub tarixiy kitoblar taqdimoti ham o'tkazildi.

"Xalq so'zi".

OILA VA JAMIYATDA AYOLLARNING ROLI ALOHIDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Qozog'iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ayollar va oila-demografik siyosat masalalari bo'yicha milliy komissiya a'zolari bilan uchrashdi.

Muloqotda Oliy Majlis Senati Raisi mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yuzasidan fikr bildirdi.

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, shundan o'ndan ortig'i xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgani alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, ayollarning biznes sohasidagi faoliyatini rag'batlantirish, ularning

tashabbuslarini ro'yobga chiqarish maqsadida Xalq banki tizimida kompleks yordam ko'rsatish mexanizmi joriy etilgani aytiladi. Bu tizim orqali ayol tadbirkorlarning faoliyatini boshlang'ich bosqichdan to mustaqil biznesni yuritishgacha bo'lgan jarayonda qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda.

Uchrashuvda ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, gender tenglik, oila va jamiyatda ayollarning rolini yanada kuchaytirish bo'yicha fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida NOSHIRLIK FAOLIYATIGA OID QONUN – MUHOKAMA MARKAZIDA



Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining majlisida "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimchalar va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun hamda 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining ijro etilish holati muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda noshirlik faoliyati sohasini takomillashtirishga, sifatli adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlashga, kitobxonlik madaniyatini ommalashtirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi to'rt yilda nashriyotlar soni 3,5 barobar ko'payib, 590 taga yetdi, shundan xususiy nashriyotlar 531 tani (90 foiz) tashkil etmoqda. Nashriyotlarning ishlab chiqarish quvvati 2 barobar oshib, har yili o'rtacha 11 ming nomda 40 mln. nusxada kitoblar nashr qilinaypti.

Sohaga 25 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritilib, 2025-yil 1-yanvardan boshlab nashriyot korxonalari foyda solig'ini to'lashdan 5 yil muddatga ozod qilindi.

Tahlillar amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xususan, hozirda nashriyot bosh muharririning huquqiy maqomi, unga qo'yiladigan talablar va mas'uliyatiga oid normalarning yo'qligi amaliyotda ayrim muammo va kamchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, kitoblarda qonunchilik va ijtimoiy axloqqa zid, bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lmagan, tarixiy faktlar va tibbiyotga oid kitoblarda noto'g'ri ma'lumotlar nashr etilishi, shuningdek, chop qilingan kitoblar davlat standartlari talablariga mos emasligi kuzatilmoqda. Achinarlisi, nashriyotlarning 248 tasida bosh muharrir lavozimi yo'q.

Qonunda bir qator yangi normalar belgilanmoqda. Xususan, bosh muharrir lavozimiga oliy ma'lumotga va noshirlik faoliyatida kamida uch yil ish stajiga ega bo'lgan

shaxs tayinlanishi mumkinligi qayd etilmoqda. Bunda bosh muharrir nashriyotning ijodiy faoliyati uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'lishi, bundan tashqari, bosh muharrir nashrlarning mavzu yo'nalishlaridan kelib chiqib, tegishli ekspertlar va olimlarning yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining taqizirlarini mustaqil ravishda olishga yoki muallifdan (mualliflardan) ularning taqdim etilishini talab qilishga haqli ekanligi belgilanmoqda.

Muhokama davomida qonunning qabul qilinishi kitoblarning milliy standartlar asosida chop etilishiga, nashrlarda qonunchilik va ijtimoiy axloqqa zid mazmundagi axborotlar tarqatilib olishini oldini olishga hamda nashriyotlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, qo'mita majlisida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining ijro holati masalasi ham muhokama etildi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Ichki ishlar vazirlilari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi mas'ullarining bu bo'yicha axboroti eshitildi.

Senatorlar tomonidan mazkur yo'nalishlardagi xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rini yaxshilash ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, strategiyaning ijro holatiga doir dolzarb masalalar yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasiga taqdim etish nazarda tutilaypti.

"Xalq so'zi".

BITIRUVCHILARNING BANDLIGINI TA'MINLASH – DOLZARB VAZIFA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev ishtirokida Buxoro davlat pedagogika institutida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Senat va yoshlar

Unda bitiruvchilarning bandligini ta'minlash, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir ishtirokchilari bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashdagi mavjud muammolarni tahlil qilishdi va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-

tadbirlar belgilab olindi. Amaliyot dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, bandlikka ko'maklashuvchi dasturlarni kengaytirish hamda hududlarda bitiruvchilarni qo'llab-

quvvatlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Jizzax viloyatida ham oliy ta'lim muassasalarini tamomlayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalariga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi Jamila Bobonazarova ishtirok etdi.

Yig'ilishda viloyatdagi beshta oliy ta'lim muassasasini joriy yilda tamomlagan 8 mingdan ziyod, jumladan, Jizzax davlat pedagogika universitetining 4 476 nafar bitiruvchilarining bandligini ta'minlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Unda yoshlarning salohiyatidan

samarali foydalanish, ular uchun mehnat bozori talablariga mos ish o'rinlarini yaratish, hududiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda manzilli chora-tadbirlarni belgilash zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shu bilan birga, uyushmagan yoshlarni ham munosib ish bilan ta'minlash bo'yicha fikr almashildi. Bu borada kasbga yo'naltirish markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularning faoliyatini tuman va shahar darajasida samarali yo'lga qo'yish lozimligi qayd etildi.

Yig'ilish yakunida mas'ul idora va tashkilotlar zimmasiga bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar yuklatildi va belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

So'nggi yillarda yurtimizda jamiyatning turli jabhalari qatori sport sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilayotir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi va davlat dasturlarida belgilangan aniq maqsadli yo'nalishlar orqali sport sohasi nafaqat sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, balki mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishning asosiy vositasiga aylanib bormoqda. Bugun sport sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlashda ulkan ahamiyat kasb etyapti.

Islohotlar jarayonida asosiy e'tibor "Sog'lom avlod – sog'lom kelajak" tamoyiliga qaratilgan. Zero, kuchli davlat qurishning, jamiyatda ma'naviy va intellektual yuksalishga erishishning poydevori sog'lom hamda barkamol avloddir. Shu bois ham yurtimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport majmualarini barpo etish, omnaviy sportni keng targ'ib qilishga katta ahamiyat berilayotir.

Xususan, 2017 – 2024-yillarda amalga oshirilgan islohotlar jarayonida sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi. Bu, o'z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlarning sportga qiziqishini oshirdi. Natijalar esa birma-bir bo'y ko'rsatib bormoqda. Misol uchun, 2024-yil Parij Olimpiadasi va Paralimpiya o'yinlarida yurtimiz sportchilari munosib ishtirok etib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni egallagani bu yo'nalishdagi samarali ishlar natijasidir.

Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishda sportchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishning ahamiyati yanada oshadi. Shu maqsadda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tariximizda ilk bor Olimpiya shaharchasi qurilishiga kirishildi. Bu majmua nafaqat zamonaviy sport infratuzilmasi, balki milliy sport siyosatida yangi bosqichning ramziga aylandi.

2022-yil 9-noyabr kuni tamal toshi qo'yilgan ushbu shaharcha Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o'zbek sportining olamshumul yutuqlari ramzi bo'lib qolishi lozim edi. Oradan qisqa vaqt o'tdi va bu orzu amaliy hayotga aylandi. Yuz gektardan ortiq maydonda qurilgan Olimpiya shaharchasi bugungi kunda nafaqat yurtimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik hamda zamonaviy sport maskani sifatida barpo etildi.

290 million dollarlik noyob loyiha Xitoyning "CAMC Engineering" kompaniyasi tomonidan xalqaro standartlar asosida



OLIMPIYA SHAHARCHASI MAMLAKATIMIZ SPORTINI XALQARO MAYDONDA YANADA YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILADI

amalga oshirildi. Mazkur majmua nafaqat sportchilar, balki tomoshabinlar, murabbiylar, turli sport federatsiyalari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ham qulaylik yaratib, sport sohasining barcha tamog'ini bir-biri bilan uzviy bog'laydigan ulkan

yurtimiz yoshlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. U orqali nafaqat yuqori sport natijalariga erishish, balki omnaviy sportni keng yo'lga qo'yish, aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash kabi ustuvor

"Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishda sportchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishning ahamiyati yanada oshadi. Shu maqsadda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tariximizda ilk bor Olimpiya shaharchasi qurilishiga kirishildi. Bu majmua nafaqat zamonaviy sport infratuzilmasi, balki milliy sport siyosatida yangi bosqichning ramziga aylandi."

markazga aylandi.

Olimpiya shaharchasining ahamiyatini anglab yetish uchun uning tuzilishi va vazifalariga e'tibor qaratish zarur. Bu yerdagi beshta asosiy sport majmuasi – velodrom, 12 ming o'rinni stadion, suv sporti saroyi, jamoaviy sport turlari uchun universal zallar, yakkakurash sportlari majmuasi – har biri alohida yirik yo'nalishni qamrab olgan. Shaharcha hududida futbol, tennis, xokkey kabi sport turlari uchun ochiq maydonlar, paralimpiya yotoqxonasi, sport tibbiyoti markazi va ilmiy-tadqiqot muassasalari joylashgani uning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Qisqacha aytganda, Olimpiya shaharchasi bu nafaqat sportchilar uchun mashg'ulot hamda musobaqa maydoni, balki sport ilmi, ta'limi va tibbiyotining yagona integratsiyalangan markazidir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mazkur shaharcha mamlakatimiz sportining ilmiy-amaliy, o'quv-mashg'ulot bazasi sifatida xizmat qiladi.

Va umuman, Olimpiya shaharchasi bu davlat siyosatining uzviy qismi sifatida

vazifalar hal etiladi.

Demak, Olimpiya shaharchasi – bu bunyod etilgan oddiy sport inshooti emas, balki yangi O'zbekiston sport siyosatining istiqbolini belgilaydigan tarixiy loyiha. U orqali mamlakatimiz nafaqat mintaqada, balki jahon sport maydonida ham o'zining munosib o'rini egallashga intilayotganini ko'rsatmoqda.

Bu majmua nafaqat arxitektura jihatidan, balki sport infratuzilmasi, funksional imkoniyatlari va strategik ahamiyati jihatidan ham noyobdir. Qisqa muddatda barpo etilgan ushbu shaharcha mamlakatimiz sport siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Undagi har bir sport inshooti nafaqat yuqori darajadagi musobaqalarni qabul qilish, balki yoshlar sportini rivojlantirish, sport ilmi va tibbiyotini kuchaytirish, shu bilan birga, mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishga xizmat qiladi.

Endilikda ularning har biri yurtimiz sportida qanday ahamiyat kasb etishini tahlil qilamiz.

Olimpiya shaharchasining eng muhim va o'ziga xos inshootlaridan biri velodrom

hisoblanadi. Bu sport turi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida keng ommalashgan bo'lib, Olimpiya dasturining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Velodrom murakkab muhandislik yechimlari asosida qurilgan, uning trayektoriyalari, burilish burchaklari, yog'och qoplamasi Xalqaro olimpiya qo'mitasining qat'iy talablariga to'liq javob beradi. Yo'lak eng mustahkam daraxt turlaridan yasalgan va qavatma-qavat yotqizilgani sababli sportchilar uchun xavfsizlik va yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Uning yana bir jihati, ichki iqlim sharoitini yil davomida barqaror saqlab turish imkoniyatidir. Bu esa velosportchilar uchun optimal mashg'ulot muhitini yaratadi. Hatto havo qarshiligi darajasi ham inobatga olingani olimlar tomonidan e'tirof etilayotir. Velodrom 2200 tomoshabinga mo'ljallangan. Bu esa xalqaro musobaqalar, omnaviy velosport bayramlari, mahalliy chempionatlarni tashkil etish imkoniyatini ham yaratadi.

Aytish joizki, O'zbekistonda bu darajadagi velodrom ilk bor qurildi. Demak, endilikda mamlakatimizda velosportni rivojlantirish, uni ommalashtirish uchun zarur poydevor qo'yildi. Prezidentimiz ham velosport sohasida alohida dastur ishlab chiqishni mutasaddilar oldiga vazifa qilib qo'ydi.

Shaharcha markazida joylashgan stadion mamlakatimizdagi eng yirik sport maskanlaridan biri bo'lib, 12 ming tomoshabinga mo'ljallangan. Uning asosiy ahamiyati yengil atletikaning barcha yo'nalishi bo'yicha xalqaro va milliy musobaqalarni o'tkazish imkoniyatidir.

Stadion maydonida 9 qatorli yugurish yo'lagi, yashil maydon va yengil atletikaning 48 ta yo'nalishi bo'yicha musobaqa o'tkazish imkonini mavjud. Bu degani endilikda O'zbekistonda jahon chempionati, Brilliant

ligasi, para atletika bahslari kabi nufuzli turnirlarni qabul qilish imkoniyati yaratildi. Stadion to'rt qavatli ma'muriy binoga ega bo'lib, unda milliy terma jamoalar mutaxassislari, sport federatsiyalari hamda murabbiylar shtablari faoliyat yuritadi. Demak, bu joy sport diplomatiyasi va tashkilotchilik markaziga ham aylanadi.

Prezidentimiz yengil atletikani aholi salomatligini mustahkamlashda muhim yo'nalish sifatida belgilab, uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Shu bois stadion nafaqat professional sportchilar, balki yoshlar va omnaviy sport qatnashchilari uchun ham ochiq bo'ladi.

Olimpiya shaharchasidagi suv sporti saroyi ham zamonaviy imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Unda 25x50 metrl suzish havzasi, 25x20 metrl suvga sakrash havzasi, sinxron suzish va suv polosi uchun maydonlar mavjud.

"World Aquatics" federatsiyasi delegatsiyasi tomonidan berilgan xulosaga ko'ra ushbu saroyda xalqaro chempionatlar, hatto Olimpiya o'yinlari dasturidagi musobaqalarni ham o'tkazish imkoniyati bor. Bu O'zbekiston sporti tarixida yangi sahifa ochadigan voqeelikdir.

Saroyda tomoshabinlar uchun 2000 o'rin mo'ljallangan bo'lib, uning arxitekturasida va texnik jihatlarida teletranslyatsiya talablariga to'liq javob beradi. Shu bois kelgusida Toshkentda jahon miqyosidagi suzish

musobaqalarini tomosha qilish imkoniyati yuzaga keladi. Eng muhimi, mazkur maskan suv sporti turlarini ommalashtirishga xizmat qiladi. Bugun mamlakatimizda suzish sportiga qiziqish tobora ortib borayotgani holda, zamonaviy infratuzilma orqali ko'plab iqtidorli yoshlar jahon arenalariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olimpiya shaharchasida jamoaviy sport turlari uchun alohida majmua qurilgan bo'lib, unda voleybol, basketbol va gandbol bo'yicha xalqaro musobaqalar o'tkazish imkoniyati mavjud. Uning 2000 o'rinni arenas nafaqat professional sportchilar, balki yoshlar musobaqalari uchun ham juda qulay.

Yakkakurashlar majmuasi esa dzyudo, boks, taekvondo, kurash kabi sport turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishlarda sportchilarimiz so'nggi yillarda katta natijalarga erishib kelmoqda. Misol uchun, Olimpiada va jahon chempionatlarida yurtimiz boks va taekvondosi xalqaro jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Ushbu majmua esa ularning tayyorgarligi uchun asosiy bazaga aylanadi.

Olimpiya shaharchasi nafaqat sport inshootlari, balki sport fanlari markazi sifatida ham tashkil etilgan. Bu yerda Sport vazirligi, Antidoping agentligi, Davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti, Sport turlarini rivojlantirish markazi joylashtirilgan. Va shu tariqa, sport ilmi, tibbiyoti va amaliyoti uyg'unlashgan holda ish olib boriladi. Sport tibbiyoti markazi orqali

sportchilarning salomatligini muntazam nazorat qilish, tiklanish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, paralimpiya yotoqxonasi imkoniyati cheklangan sportchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Bu mamlakatimizda inklyuziv sportni rivojlantirish yo'lida katta qadam hisoblanadi.

Haqiqatan ham, Olimpiya shaharchasi bu oddiy sport inshootlari majmuasi emas. U mamlakatimiz sport siyosatidagi uzoqni ko'zlagan, strategik ahamiyatga ega loyiha. Uning har bir majmuasi yurtimiz sportining yangi bosqichini boshlab bermokda. Ishonchimiz komikli, Olimpiya shaharchasi nafaqat yuqori natijalar uchun, balki omnaviy sportni rivojlantirish, yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishga xizmat qiladi.

Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi.

Kecha "Tashabbusli byudjet" jarayonlarining joriy yil 2-mavsumi doirasida saralash bosqichi yakunlanib, targ'ibot bosqichi boshlandi.



AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARI KAFOLATI



Majlisda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar diqqat markazida bo'lib, Prezident Farmoni bilan bir guruh tadbirkorlar qator davlat mukofotlari va "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlangani e'tirof etildi. Shu bilan birga, deputatlar hududlardagi faoliyati davomida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazayotgani hamda ular manfaatiga alohida e'tibor qaratilayotganiga urg'u berildi.

Shuningdek, majlisda davlat



organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash, davlat organlari faoliyatida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi. Parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar ham muhokama qilindi.

Zararning o'rnini qoplash qat'iy belgilanmoqda

Majlisda davlat organining yoki mansabdor shaxsning qonunga xilof qarori, harakati yoxud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda davlat organlari mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash yagona qonunchilik hujjati bilan tartibga solinmagan. Xususan, bugungi kunda yetkazilgan zararning o'rnini qoplash o'ndan ortiq qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Amaldagi tartibga ko'ra, Toshkent shahrida zararlar fuqaro (yuridik shaxs)larga kompensatsiya jamg'armalari hisobidan, boshqa hududlarda mahalliy byudjet mablag'laridan undirib berilgan. Shuningdek, yetkazilgan zararlar uchun kompensatsiya undirish, shu jumladan, zararni qoplashning regress tartibi qonun hujjatlari bilan aniq ochib berilmagan.

Mazkur qonun loyihasi bilan yetkazilgan zararning o'rnini kompensatsiya qilish, hududiy kompensatsiya jamg'armasi hisobidan qoplab berilgan mablag'larni keyinchalik aybdor, deb topilgan davlat organining

mansabdor shaxsidan to'liq miqdorda regress tartibida undirib olish, hududiy kompensatsiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish tartibi belgilanmoqda. Ya'ni loyihaga ko'ra, jismoniy yoki yuridik shaxsga yetkazilgan hamda sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan moddiy va (yoki) ma'naviy zararning o'rnini qoplashda yagona amaliyot yo'lga qo'yilib, yetkazilgan zarar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi hududiy kompensatsiya jamg'armalaridan qoplanadi. Keyinchalik aybdor shaxsdan tegishli davlat organi orqali regress tartibida undirib olinadi. Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlab jarayonida siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar tomonidan ko'tarilgan masalalar, taklif va tavsiyalardan kelib chiqib u yanada takomillashtirilgani ta'kidlandi. Ayrim normalardagi nomuvofiqliklar bartaraf etilib, asosiy tushunchalar yuridik-texnik jihatdan tahriri qayta ko'rib chiqilgani urg'ulandi.

Aytilganidek, ushbu hujjat fuqarolarning davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini davlat tomonidan qoplanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash hamda aybdor mansabdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishni nazarda tutadi. Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Murojaatlar bilan ishlashda tezkorlik va shaffoflik zarurati

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kirish to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda davlat organlari va tashkilotlarining mas'uliyatini yanada kuchaytirish hamda sohada ixcham boshqaruv tizimini shakllantirishga doir keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu qonun loyihasi mamlakatimizda qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish va huquqiy mexanizmlarni zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan.

Loyihada amaldagi bir qator qonun hujjatlarini o'zaro

muvofiglashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirish hamda tovar belgilari va patent bojlari to'g'risidagi qonunchilikni mukammallashtirish nazarda tutilmoqda.

Xususan, loyihada tovar belgisiga doir guvohnomaning amal qilishi, huquq egasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning egalik huquqi manfaatdor shaxsning arizasiga binoan sud qarori asosida tugatilishi mumkinligi taklif etilyapti. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanilganda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ogohlantiruvchi tamg'a qo'yilishi mumkinligini belgilash ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, "Ishonch telefoni" tushunchasiga izoh berilib, uni jismoniy va yuridik shaxslardan ularning qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha arizalar, takliflar va shikoyatlarni qabul qilish uchun telefon aloqasining maxsus liniyasi sifatida nazarda tutish belgilanyapti.

Qonun loyihasi davlat organlari faoliyatida huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlash, murojaatlar bilan ishlash jarayoni tezkor va shaffof bo'lishi, intellektual mulk sohasida huquqiy muhofaza darajasining oshishi hamda biznes yuritish uchun qulay huquqiy muhit yaratish kabi maqsadlarni nazarda tutgan.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Atom energiyasidan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorati

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – atom energiyasidan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Mamlakatimizda atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, uning xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmog'da. Bu jarayonda xalqaro standartlarga mos huquqiy asoslarni yaratish, boshqaruv tizimi va nazorat mexanizmlarini isloh qilish, sohadagi ishtirokchilarning vakolat hamda majburiyatlarini aniq belgilashga e'tibor qaratilayotir.

Mazkur qonun loyihasi bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi sohada yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida belgilanyapti.

Shuningdek, loyiha bilan davlat organlari, vazirlik va idoralarning nomlari hamda huquqiy atamalar amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirilmoqda. Yuridik-texnika qoidalardan kelib chiqib, normalarni aniqlashtirish va ular o'rnatidagi uyg'unlikni ta'minlash maqsadida tegishli o'zgartirishlar kiritilyapti.

Muhokama jarayonida qonun loyihasi atom energiyasidan foydalanish sohasida huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish, davlat boshqaruvi va nazoratining samarali yo'lga qo'yilishini

ta'minlash hamda sohadagi munosabatlarni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgani ta'kidlandi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Bank tizimini isloh qilish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Majlisda Markaziy bank raisi T. Ishmetovning "Bank tizimini isloh qilish va tijorat banklarini transformatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar"ga oid parlament so'roviga javobi atroflicha muhokama etildi.

Markaziy bank javobida bildirilishicha, 2020 – 2025-yillarda 3 ta bank xususiyashtirilib, 9 ta yangi xususiy bank, shu jumladan, 3 ta xorijiy moliya muassasasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida davlat ulushiga ega banklar aktivlari ulushi 85 foizdan 65 foizgacha qisqargan.

Deputatlar parlament so'roviga olingan javobda keltirilgan natijalarni ijobiy baholadi. Xususan, 2020 – 2025-yillar davomida davlat ulushiga ega banklarning kapital bazasini mustahkamlash maqsadida jami 34,1 trln. so'm mablag' yo'naltirilgan. Mazkur choralar kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, bank xizmatlari sifatini oshirish va tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xalq vakillari kelgusida aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni rivojlantirish maqsadida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik choralari kengaytirish zarurligini qayd etdi.

Shu bilan birga, bank va to'lov tashkilotlari o'rtasida ma'lumotlarni muhofazalangan telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatish imkonini beruvchi maxsus axborot tizimini joriy qilish



ishlarini tezlashtirish bo'yicha o'z takliflarini berdi.

Muhokamada kredit ajratishda shaffoflikni oshirish va inson omilini kamaytirish maqsadida "oilakredit.uz" platformasi ishga tushirilgan deputatlar e'tiborida bo'ldi.

Majlis yakunida taqdim etilgan parlament so'roviga javob ma'lumot uchun qabul qilindi.

Sport vaziriga parlament so'rovi yuborildi

Deputatlar Sport vaziri A. Ikromovga "Aholining keng

qatlamlari, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar orasida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ommaviy tadbirlarni tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Aytilganidek, mamlakatimizda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan har jihatdan qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 8-noyabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori dasturilamal bo'lmoqda.

Biroq tahlillar sohada o'z yechimini kutayotgan ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, deputatlar davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarorida belgilangan ayrim masalalarning ijrosi to'liq ta'minlanmagani e'tibor qaratdi.

Shuningdek, moslashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni tayyorlash institutida karlar va ko'zi ojizlar sporti, maxsus olimpiya sport turlari hamda nogironligi bo'lgan shaxslar shug'ullanadigan boshqa sport turlari yo'nalishlarida malaka oshirish kurslari yetarli darajada tashkil etilmagan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning

funksionalligini baholash natijalariga muvofiq, jismoniy reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi lozim. Mazkur toifadagi shaxslarga sport bilan shug'ullanishi uchun qulay sharoitlar yaratish va mavjud infratuzilmani moslashtirish ham kun tartibidagi dolzarb masalalar hisoblanadi.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish haqida Sport vaziriga parlament so'rovi yuborildi.

"Xalq so'zi".

Yangi o'quv yili oldidan



MAKTAB YARMARKALARI — EL XIZMATIDA

Gohida ko'zimizga kichik, arzimas ko'ringan narsalar aslida juda muhim bo'lishi, hatto hal qiluvchi rolni o'ynashi mumkin. Misol uchun, biz farzandlarimiz ta'lim muassasalarida a'lo darajada o'qishini, fanlarni chuqur o'zlashtirib, ertaga e'tiborli oliy o'quv yurtida talaba bo'lishini, oilasi, elu yurtiga naf keltiradigan inson o'laroq yetishishini orzu qilamiz. Buning uchun yelib-yuguryapmiz, ularga yetarlicha sharoit yaratib bermoqchimiz. Agar nimadandir ko'ngli to'lmasa, kiyim-kechagi yoxud kitob-daftarida kamchilik, yetishmovchilik bo'lsa, bu farzandimizning ruhiyatiga, o'qishiga, o'quvchilar orasida o'zini tutishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

M a n a, yangi o'quv yili boshlanishiga ham oz qoldi. Maktab formasi, o'quv qurollarini olishga shoshilishimiz kerak. Toki farzandimiz maktabga bekamu ko'st chiqsin, o'qishni xushkayfiyat, yangicha ruh bilan boshlasin. Axir ajdodlarimiz sinab, ko'rib-bilib aytishgan: "Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqatting oz bo'lar".

Yangi o'quv yiliga hozirlik, o'quvchilar va ota-onalarni zarur sharoitlar bilan ta'minlash masalasi, albatta, davlatimiz e'tiborida. 15-avgustdan ota-onalar uchun qulaylik yaratish va farzandlarni yangi o'quv yiliga tayyorlashda xarajatlarni kamaytirish maqsadida mamlakatimizning turli hududlaridagi bozorlarda, yirik savdo majmualari va do'konlarda maktab yarmarkalari ish boshladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, maktab yarmarkalarining 931 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 293 tasi aholi gavjum bozorlar hududi va atroflarida, 528 tasi esa yirik savdo majmuasi va do'konlarda tashkil etilmoqda. Birgina poytaxtimizning o'zida o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish uchun 300 ga yaqin maktab yarmarkalari ochildi. Ushbu rastalarda 26 turdagi zaruriy o'quv qurollari va jihozlari sotuvi amalga oshirilmog'da. Maktab formalari deysizmi, darsliklar va kanselyariya buyumlarini, barchasini xarid qilish mumkin.

"Chilonzor dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati hududida ochilgan maktab yarmarkasida sotuvchilar bilan suhbatlashmoqchi bo'ldik. Ammo negadir aksar sotuvchilar intervyu berishni xohlashmadi. Bu hol, bir tomondan, kishida savollar paydo qilsa, boshqa tomondan, ranjitadi ham. Chunki mazkur jarayonda tadbirkorlarning keng jamoatchilik uchun ochiqligi mijozlar uchun shaffof muhit yaratilganidan, mahsulotlarining narx-navosi, sifati borasida savollar tug'ilmasligiga, ishonchni qozonishga intilishidan dalolat.

Xayriyat, sotuvchilar orasidan ommaviy axborot vositalari bilan muloqotga tayyor yurtdoshimizni ham topdik.

Yarmarkalarimizda sumkalar, daftar-qalam, xullas, kerakli barcha o'quv qurolini sotyapmiz, — deydi "Chilonzor dehqon bozori" hududidagi maktab yarmarkasi do'konlaridan birining sotuvchisi Jahongir Eshimov. — Mahsulotlarimiz sifatli, standartlarga to'liq javob beradi. Xaridorlarning talabiga ko'ra ular uchun qulay narxlarda sotilyapti. Eng muhimi, yarmarkada ota-onalar farzandlariga zarur bo'ladigan ashyolarning barchasini bir yerning o'zidan topa oladi. Sarson bo'lib, do'konma-do'kon, bozorma-bozor yurmaydi.

Do'konlar endigina ochilgani uchunmi, hali unchalik gavjum bo'lmasa-da, farzandlarini yetaklab, savdo qilib yurgan ota-onalar ko'p. Kimga daftar kerak, kimga qalam — xullas, hamma yangi o'quv yiliga hozirlik bilan qalam.

O'g'lim kelajakda shifokor bo'lmoqchi, — deydi yarmarka do'konlaridan o'quv qurollari sotib olayotgan Farida Muhammadova. — U bu yil 5-sinfga o'tadi. Deyarli hamma kerakli narsamizni oldik. Har yili maktab yarmarkalaridan savdo qilamiz. Nazarimda, bu yil daftarlar nisbatan sifatsizroq, yupqaroq chiqqandek. Bozorda savdo rastalari ko'p, ko'raylik-chi, balki boshqa do'konlardan sifatli daftarlar chiqib qolar.

Ota-onalar bolalari uchun, tabiiyki, eng yaxshisini olishni istaydi. Yangi sumkalarni yangi o'quv qurollariga to'ldirib olgan bolalarning esa kayfiyati a'lo darajada. Bu bolalar — bizning kelajagimiz! Ular ulg'ayishadi, o'qib-o'rganishadi. Har biri biror kasbning etagini tutib, mana shu mustaqil, jannatmonand yurtimizning ravnaqiga, albatta, o'z hissasini qo'shadi.

G'olib BAHROMOV ("Xalq so'zi").

QURG'OQCHILIK MONITORINGIDA YANGI LOYIHA

"O'zbekkosmos" agentligi BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy hamda ijtimoiy komissiyasi va "Roskosmos" davlat korporatsiyasi bilan hamkorlikda yangi loyiha ijrosiga kirishdi. Bu o'rinda gap Markaziy Osiyo davlatlari uchun yerni masofadan zondlash texnologiyalariga asoslangan qurg'oqchilikni monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish haqida bormog'da. Ikki yilga mo'ljallangan va qiymati 300 ming AQSH dollarilik mazkur loyiha O'zbekiston bilan birga, Tojikiston va Qirg'iziston hududlarini o'z ichiga qamrab olgan.

Innovatsion yondashuv

Xalqaro ekspert Karef Rafisuranning e'tirof etishicha, global iqlim o'zgarishi, xususan, havo haroratining keskin ko'tarilishi oqibatida dunyoda yirik ekologik muammolar vujudga kelmoqda, ba'zi joylarda suv toshqinlari

kuzatilayotgan bo'lsa, qurg'oqchilik ortidan ekinlar qurib oziq-ovqat yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolar ham bo'y ko'rsatmoqda.

Albatta, bu — Markaziy Osiyo uchun ham xos. Ana shu sababli loyiha ishtirokchilari qurg'oqchilik bilan bog'liq muammolarni aerokosmik tasvirlar qatori bevosita joyiga

chiqib kuzatishni, tahlil qilishni rejalashtirgan. "Roskosmos"ning Xalqaro aloqalar departamenti bosh eksperti Yekaterina Ranyukning fikricha esa qurg'oqchilik muammolariga xalqaro miqyosda jiddiy e'tibor qaratilayotgani haqiqiy holatni kelgusida birmuncha yumshatishga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida o'tkazilgan anjumanda so'zga chiqqan Xitoy aerokosmik tadqiqotlar instituti dotsenti Nana Van, hindistonlik mutaxassis Tarmik Mitran qurg'oqchilikka qarshi kurashda kosmik monitoring asosiy instrumentlardan biri ekaniga urg'u berdi. Jumladan, masofadan zondlash, ya'ni sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali tuproq namligi, o'simlik qoplam, suv havzalaridagi

o'zgarishlarni aniqlash mumkin. "MODIS", "Sentinel", "Landsat" kabi sun'iy yo'ldoshlar yuqori aniqlikdagi tasvirlarni taqdim eta oladi.

Qolaversa, "NDVI" singari indekslar ko'magida o'simliklarning o'sishi va rivoji, hosildorligini oldindan bashorat qilish imkoni bor. Loyihaning aynan O'zbekistonda boshlangani ham bejiz emas. Chunki bu mamlakatda xalqaro tashkilotlar faoliyatiga hech qanday monelik yo'q, aksincha, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmog'da.

Abdunabi ALIQULOV ("Xalq so'zi").



VATANIMIZ TARAQQIYOTIGA MUNOSIB HISSA QO'SHISH — TADBIRKORLIK BURCHIMIZ

Abdulhoshim ISMOILOV,
Andijon tumanidagi “Ravon taraqqiyot orzusi” MCHJ ta'sischisi,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor:



– Prezidentimiz Farmoniga ko'ra, samarali faoliyat yuritib, salmoqli natijalarga erishayotgan biznes vakillariga yuksak davlat mukofotlari berilishi biz, tadbirkorlarga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasi bo'ldi.

Aslida ham, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib, har yili ko'plab imtiyozlar berilyapti, erkin biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilyapti. Natijada yurtimizda minglab yangi ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo'lmoqda. Shu jarayonda “Ravon taraqqiyot orzusi” mas'uliyati cheklangan jamiyati ham o'z salohiyatini to'la namoyon etishga muvaffaq bo'ldi.

Faoliyatimizni 2007-yilda bir necha kishi bilan boshlagan bo'lsak, hozirgi kunda jamoamizda minglab ishchilar faoliyat yuritmoqda. Ishlab chiqarilayotgan poyabzlar sifati yuqoriligi va tabiiyligi bois tashqi bozorda ham xaridorgir. Bugungi kunda mahsulotlarimiz Rossiya, Xitoy,

Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon va yana ko'plab mamlakatlarga eksport qilinmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi 6 mln. AQSH dollaridan oshdi. Bunday yangi marralarni zabt etishimizda soliq sohasidagi yengilliklar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bamosoli qanot bo'ldi.

Yurt taraqqiyoti yo'lidagi kamtarona mehnatimiz yuksak baholanib, “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor” faxriy unvoniga loyiq ko'rilganimni butun jamoamizga berilgan yuksak baho, deb hisoblayman. Biz bundan keyin ham izlanishdan to'xtamasdan ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, eksport yo'nalishlarini kengaytirish orqali Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishni o'z burchimiz, deb bilamiz.

Kamol ABDULLOYEV,
Samarqand shahridagi “Sam Antep Gilam” MCHJ ta'sischisi,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor:



– Ilgari kichik va o'rta biznes haqida gap ketganda, u istiqbolisiz harakat deb baholanib, unga qo'l urishni esa tasavvur ham qilib bo'lmas edi. Tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi kuch ekanligiga keyingi yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar misolida yaqqol amin bo'ldik. Chunki bu soha bozor iqtisodiyoti talabidan kelib chiqib, faoliyatini moslashtirish, bir paytning o'zida ko'plab ish o'rinlari ochish imkoniyatiga ega. Masalan, bizning korxonamizda bugungi kunda 1150 nafar ishchi-xodim mehnat qilyapti. Eng muhimi, tadbirkorlik ravnaqiga qaratilayotgan e'tibor tufayli qo'shimcha qiymat yaratayotgan korxonalar soni tobora ortmoqda.

Oxirgi uch yilda qo'shma korxonamiz ta'sisshiliga o'ndan ortiq ishlab chiqarish subyektlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada sun'iy maysa (gazon) va tafting, ikkilamchi xomashyodan poliester, paxta va poliefir aralashmasidan kalava ip, yuqori sifatli erkaklar ko'ylaklari va choyshablar, shuningdek, lift ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Korxonamizda o'tgan 2024-yilda 617,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan 8,5 mln. AQSH dollari miqdoridagisi Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya,

Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Xitoy va Afg'oniston davlatlariga eksport qilindi.

Umuman olganda, “Sam Antep Gilam” qo'shma korxonasi 15 yillik faoliyati davomida 15 mln. dollarlik yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, yuqori sifatli gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha Hamdo'stlik mamlakatlari orasida yetakchilardan biriga aylandi.

Mehnatimiz davlatimiz tomonidan yuksak baholanib, alohida e'tirof etib kellyapti. Jumladan, 2014-yilda “Shuhrat” medali, 2019-yilda “Mehnat Shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan bo'lsa, kuni kecha Prezidentimiz Farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan tadbirkor” faxriy unvoniga loyiq ko'ildim. Bundan buyon ham mas'uliyat bilan mehnat qilib, bildirilgan ishonchni oqlaymiz.

O'ZBEKISTONDA ISHBILARMONLIK INDEKSI 14,3 FOIZ OSHDI



Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bahosiga ko'ra, 2025-yil iyul oyida mamlakatda ishbilarmonlik faolligi indeksi 1159 birlikni tashkil etib, o'tgan oydagiga nisbatan **15,9 foiz**, 2024-yilning mos davridagiga nisbatan esa **14,3 foiz** oshdi.

Ishbilarmonlik faolligi indeksining sezilarli darajada oshishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridagi operatsiyalar soni **3 foiz**, tovar-xomashyo birjasida xomashyo sotib olish jadalligi **33,2 foiz**, tovar belgilari bo'yicha komponent **51 foiz** ortgani muhim omil bo'ldi.

O'sish sur'ati respublikaning 11 ta hududida kuzatilib, yuqori ko'rsatkich Buxoro (47,9 foiz), Surxondaryo (42,8 foiz), Namangan (35,4 foiz) va Samarqand viloyatlari (33,8 foiz) ulushiga to'g'ri keldi.

Sherzod MAHMATMURODOV,
Qamashi tumanidagi “Nurmanova Xurshida” sabzavotchilik fermer xo'jaligi boshlig'i,
“Shuhrat” medali sohibi:

– Tadbirkor kishi ko'proq daromad olish uchun doimo qo'shimcha imkoniyatlarni ishga solishga, yangi loyihalarni amalga oshirishga harakat qiladi. Men ham shu maqsadda bir necha yil burun poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'ygan edim.

Dastlab Odoqjonbo'z mahallasi hududida ommalashgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib, ichki bozorga yetkazib berish bilan shug'ullandik. Daromad yaxshi edi, lekin biz kutgan darajada emasdi. Shu bois yerdan bir

yilda ikki, uch marotaba hosil olish, ichki va tashqi bozorda xaridorgir bo'lgan yangi mahsulot turlarini yetishtirishga qaror qildik. 2022-yildan brokkoli karam yetishtirib, o'zimiz eksport qilishni yo'lga qo'ydik. Natija kutganimizdan ham ziyoda bo'ldi. Yillik daromadimiz ham, ishchilarimiz soni ham bir necha barobar oshdi. Bu kuni ko'rgan hududdagi boshqa tomorqachilar, dehqon xo'jaliklari bizga ergashishdi. Hozir mahallamiz “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida brokkoli karam yetishtirishga ixtisoslashgan.

Xullas, shu ishlarimiz o'rtidan yaxshi daromad topyapmiz, tadbirkor sifatida, ozmi-ko'pmi, elga tanilim. Kuni kecha davlatimizning yuksak mukofoti – “Shuhrat” medalgina munosib ko'rilganim hayotimdagi kutilmagan voqeik bo'ldi. Bu e'tirof kelgusida qilajak ishlarimiz, loyihalarimiz uchun qanot bag'ishlashi, shubhasiz.



Diilshod BOBOJONOV,
Shofirkon tumanidagi “Leichter Kamalak Textilen” qo'shma korxonasi rahbari, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi:



– Yaqinda yurtimiz to'qimachilik sanoati tarixida esda qoladigan voqea yuz berdi. Qo'shma korxonamiz tomonidan Germaniyaning salkam 140-yillik tarixga ega, choyshab, dasturxon, sochiq kabi uy-ro'zg'or uchun yuqori sifatli maxsus aksessuarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan, dunyo bo'ylab o'ttizdan ziyod savdo uylariga ega “CURT BAUER” brendi xarid qilindi.

Ochig'ini aytish kerak, bu jarayon oson kechgani yo'q, albatta. Avvalo, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiq siyosati, yaratib berilayotgan qulay investitsiyaviy muhit birinчилardan bo'lib yurtimizda xalqaro brendni xarid qilishda qo'l keldi. Vaholanki, bu brendga turli davlatlardan xaridor ko'p edi.

Endilikda bizda eksport hajmini hozirgi 10 milliondan 30 million dollarga yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu brend asosida dunyo bozoriga chiqamiz. Qolaversa, mahallalarda 400 ta yangi ish o'rni yuzaga keladi.

Shubhasiz, intilgan, izlangan kishi el-yurt e'tiborida bo'ladi. Yurtimizdagi bir guruh tadbirkorlar qatorida kamina ham shunday e'zozga munosib ko'rilganimdan nihoyatda minnatdorman. Bundan keyin ham butun kuch-g'ayratim, salohiyatimni ona Vatanimiz ravnaqi yo'lida sarflayman.

Bahodir ABDURAYIMOV,
Chortoq tumanidagi “Chartak Mineral Water” MCHJ ta'sischisi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi:



– Chortoq mineral suvlari o'zining shifobaxshlik xususiyati bilan butun mamlakatga dovruq taratgan. U tarkibida o'nlab ma'danli moddalar saqlashi bois ovqat hazm qilish, tayanch harakat a'zolari hamda teri kasalliklarini davolashda samarali tabiiy vositalardan hisoblanadi.

Shifobaxsh suv ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksportga yo'naltirish maqsadida 2016-yilda Rossiya kompaniyasi bilan hamkorlikda qo'shma korxona tashkil etilib, 18,6 mln. dollarlik loyihaning birinchi bosqichi amalga oshirildi. Buning hisobiga xalqaro andozalarga mos yuqori sifatli mahsulot tayyorlash imkoniyati yuzaga keldi. Natijada milliy brend ostida iste'molchilarga laym, limonli, yalpiz va rayhon ta'mlari bilan xushbo'ylashtirilgan suv yetkazib berish yo'lga qo'yildi.

2023-yilda loyihamizning keyingi bosqichi doirasida yillik hajmi 200 mln. litrga teng bo'lgan PET idishlarga suv quyish, 2024-yilda esa 150 mln. shisha idishga suv quyish loyihalari ishga tushirilgach, quvvatlar keskin ortib, eksport hajmi ko'paydi. Ayni paytda dunyoning 15 davlati bilan tashqi savdo amaliyotlarini bajaryapmiz. Ular orasida AQSH, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Mo'g'uliston, Latviya va boshqa mamlakatlar bor.

Tadbirkorlar kuni arafasida ko'plab hamkasblarim qatorida xizmatlarim e'tirof etilib, yuksak davlat mukofotiga loyiq ko'rilganimdan cheksiz sharaf tuydim. Ishontirib aytamanki, bundan buyon ham yurtimiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilamiz.

Elyorjon JALOLOV,
Quva tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, “Shuhrat” medali sohibi:



– Quvaliklar azaldan dehqonchilik va bog'dorchilik bobida yetti iqlimda dong taratgan. Ota-bobalarimizdan meros bu yumush bugungi kunda zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirilmogda. Tadbirkorlar, klaster korxonalari, tomorqa egalari emin-erkin mehnat qilishlari uchun yaratilgan qulay biznes sharoiti bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etyapti. Natijada turfa gullar, manzarali va mevali daraxtlar ko'chatlari yetishtirish hamda sotish Quva tumanining o'ziga xos drayveriga aylandi.

Mahsulotlarimiz qo'shni mamlakatlar, Osiyo va Yevropa qit'asi bozorlarida juda xaridorgir. Birgina o'zim har yili 500 turdan ortiq atirgub ko'chatlarini eksport qilaman.

So'nggi uch yilda esa Qirg'iziston, Qozog'iston va Rossiyaga 10,3 mlrd. so'mlik mahsulot yetkazib berdik. Gulchilik va ko'chatchilik tarmog'iga ilm-fan yutuqlari, innovatsiyalar joriy etilayotgani tufayli Quva tumanida Niderlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning jahon bozorida xaridorgir gullari mahalliyashtirildi. Bu boradagi ishlar ko'lami kengaytirilib, endilikda

dunyoning turli hududlaridan noyob manzarali daraxt ko'chatlari olib kelinib, mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirilyapti. Biz ham yaqin istiqbolda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirib, faoliyatimizni jahon andozalari darajasida rivojlantirishni maqsad qilganmiz. Bu – 400 ta yuqori daromadli doimiy ish o'rni yaratish imkonini beradi, deganidir.

Tadbirkorlar kuni arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganimni Quvaning tomorqachi mirishkorlari, gulchi tadbirkorlariga e'tibor va rag'bat namunasi sifatida qabul qildim. Ushbu ishonchga munosib bo'lish uchun astoydil ishlab, jonajon yurtimizni bog'u bo'stonga aylantiramiz.

Yulduz BOBOQULOVA,
Guliston tumanidagi “Yulduz Abdug'afforovna” ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi rahbari, “Shuhrat” medali sohibi:



– Xo'jaligimizning 78 gektar ekin maydoni mavjud bo'lib, unda g'alla va paxta bilan birga, sabzavot hamda poliz mahsulotlari yetishtiryapmiz. Har bir ekinning hosildorligi yil sayin ortib borayotir. Masalan, paxtaniki 45, g'allaniki esa 80 sentnerni tashkil etayotir. Bu ko'rsatkichlar yana oshadi, chunki dehqonchilikka ham innovatsion texnologiyalar jadal kirib kelmogda. Ana shu omil tufayli hosildorlikni ko'tarish barobarida, mahsulot tannarxini arzonlashtirish, jamoamizning moddiy manfaatdorligini oshirishga erishyapmiz.

Fermer xo'jaligimizda mashina-traktor parki tashkil qilinganini aytib o'tish o'rinli, deb o'ylayman. Yana 300 tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashga mo'ljallangan muzlatkich omborxona ham daromadimiz hisobiga qurildi.

Aytish joizki, bugungi qishloq xo'jaligidagi

ish yurituv an'anaviy dehqonchilikdan tubdan farq qiladi. Yuqori samarali innovatsion texnologiyalar va zamonaviy texnika vositalari tufayli mo'l hamda sifatli hosil yetishtirish imkoniyati kengaymogda, dehqonning mehnati yengillashmogda.

Xalqimiz iborasi bilan aytganda, “ketmonga dam beradigan” haqiqiy mehnat sharoiti yaratilyapti.

E'tiborlisi, tadbirkorlar, xususan, fermerlar mehnati davlatimiz tomonidan munosib qadrlanmogda. Bunga kaminaning, oddiy dehqon ayolning kamtarona mehnatlari yuksak davlat mukofoti – “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganimni misol keltirish mumkin. Aslida ham, inson uchun mehnatining e'tirofidan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Shu ma'noda, bu rag'batga yarasha, bu sharafga munosib bo'lish uchun bundan buyon ham bor kuch-g'ayratimizni ayamaymiz.

“Xalq so'zi”.

“Afrosiyob” tezyurar poyezdlarining har bir vagonida Wi-Fi xizmati yo'lga qo'yildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohmami rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.10 Topshirildi — 23.00

1 2 3 4 5 6